

kengaymoqda; bu raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifati va mahsulotlar diversifikatsiyasini oshirish uchun ijobiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, NPL hajmining ortishi va muammoli kreditlarning katta qismi hanuz davlat banklari zimmasida qolayotgani korporativ boshqaruv, kredit riskini baholash va garov siyosatini chuqur isloh qilish zarurligini ko'rsatadi. Inflyatsiya bosimi, ayrim tarmoqlarda talabning sekin tiklanishi va norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori sharoitida banklar ehtiyotkor kredit siyosatini davom ettirishi, aktivlarni restrukturizatsiya qilish hamda muammoli kreditlar bozorini institutsional rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sindarov, F.Q. (2024) 'O'zbekiston bank sektoridagi tizimli muammolar va islohotlar samaradorligi', "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, XI son, Noyabr, 2024, 297-305 -betlar.

2. Soatov, F.K. (2024) Bank aktivlari va passivlari o'rtasidagi munosabatning bank daromadliligiga ta'siri. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, X son, 205–216-betlar.

3. Qalandarov, A.B. (2020) Banklardagi muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari. Ilm-fan va innovatsion rivojlanish, №6, 18–25-betlar.

4. Sabirova, L.B. (2025) Tijorat banklari kredit portfelining tahlili. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 5(5), 117–130-betlar.

5. Adilov, M.M. (2024) Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rni va ahamiyati. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(7), 38–45-betlar.

O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Z.A.Shamansurova

TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası DSc, professori

So'nggi yillarda global moliya tizimida barqaror rivojlanish konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etib, moliya bozorlarida yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ushbu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari — atrof-muhitga mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlik va samarali korporativ boshqaruvni o'zida mujassam etgan mezonlar majmui sifatida — investitsiya va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim omilga aylanmoqda.⁷ ESG yondashuvi moliyaviy natijalarni faqat daromadlilik nuqtai nazaridan emas, balki uzoq muddatli barqarorlik, risklarni boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda baholashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro

⁷ World Bank, ESG and Sustainable Finance in Emerging Markets. – Washington, 2022

kapital oqimini jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.⁸ Ushbu maqsadlarga erishishda ESG tamoyillarini moliya bozoriga integratsiya qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy global investorlarga ko'ra, moliyaviy barqarorlik ESG mezonlariga moslik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya bozorida ESG tamoyillarining sekin joriy etilishi bir nechta o'zaro bog'liq tizimli omillar bilan izohlanadi. Avvalo, institutsional darajada ESG ni yagona strategik yondashuv sifatida muvofiqlashtiruvchi mexanizm mavjud emas. ESG tarkibiy qismlarining turli davlat organlari vakolatlariga bo'linishi ushbu yondashuvning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga to'liq integratsiyalanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ikkinchidan, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, yagona standart va indikatorlarning mavjud emasligi ESG ko'rsatkichlarini solishtirish, monitoring qilish va baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli ESG ko'pincha amalda ishlamay, faqat hujjatlarda qolmoqda.

Uchinchidan, iqtisodiy omillar ESG ni joriy etish jarayonini sekinlashtirmoqda. Ko'plab korxonalar qisqa muddatli moliyaviy manfaatlarni ustuvor deb bilib, ESG ni uzoq muddatli investitsiya emas, balki qo'shimcha xarajat sifatida baholamoqda. Banklar va investorlar tomonidan ESG risklarini yetarli darajada hisobga olinmasligi ushbu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, ESG bo'yicha bilim va malakaning yetishmasligi, korporativ boshqaruv madaniyatining pastligi ham ta'sir qilmoqda.⁹

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlarda moliya bozorining barqarorligi va investitsiya jozibadorligi sezilarli darajada oshgan. Yevropa Ittifoqida ESG hisobotlari majburiy tartibda joriy etilgan bo'lsa-da, murakkab regulyator talablari ayrim hollarda bozor faolligini pasaytirgan. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi esa ESG ni bosqichma-bosqich, rag'batlantiruvchi mexanizmlar asosida joriy etish samaraliroq ekanini ko'rsatadi.¹⁰ Mazkur holatlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston uchun eng maqbul model — xalqaro GRI va TCFD standartlariga moslashtirilgan, ammo milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga oluvchi ESG tizimini joriy etish hisoblanadi. Ushbu yondashuv xalqaro investorlar talablariga mos kelishi bilan birga, milliy moliya bozorining rivojlanish darajasiga moslashuvchan mexanizmni ta'minlaydi.¹¹

O'zbekiston moliya bozorida ESG tamoyillarini samarali joriy etish quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi lozim:

- yirik va tizimli ahamiyatga ega kompaniyalar uchun ESG hisobotlarini bosqichma-bosqich majburiy etish;
- milliy ESG indikatorlar tizimini ishlab chiqish va yagona ma'lumotlar platformasini yaratish;

⁸ "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. PF-158

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024–2025.

¹⁰ International Finance Corporation (IFC), ESG Integration in Financial Markets. – 2024.

¹¹ Global Sustainable Investment Alliance (GSIA), *Global Sustainable Investment Review*. – 2024.

- ESG ko'rsatkichlarini bank kredit siyosati va investitsiya qarorlariga integratsiya qilish;
- "yashil" va ijtimoiy obligatsiyalar orqali barqaror moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish;
- ESG bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish.

Mazkur mexanizmlar ESG ni nazariy konsepsiyadan real moliyaviy mexanizmga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya bozorida ESG tamoyillarini joriy etishdagi kechikishlar institutsional, normativ-huquqiy va boshqaruv omillari bilan bog'liq tizimli muammolarning natijasidir. "O'zbekiston -2030" strategiyasi doirasida ESG tamoyillarini moliya bozoriga chuqur integratsiya qilish mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun muhim shart hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ESG tamoyillarini milliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etish O'zbekiston moliya bozorining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *"O'zbekiston - 2030" strategiyasi. PF-158- Toshkent, 11.09.2023*
2. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. - Toshkent, 2024-2025.*
3. *World Bank, ESG and Sustainable Finance in Emerging Markets. - Washington, 2022.*
4. *International Finance Corporation (IFC), ESG Integration in Financial Markets. - 2024.*
5. *Global Sustainable Investment Alliance (GSIA), Global Sustainable Investment Review. - 2024.*

O'ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT VA XUSUSIY BANKLARNING BALANS TARKIBI HAMDA ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Azimboyeva Marjona

Bank-moliya akademiyasi magistranti

O'zbekiston bank-moliya tizimida davom etayotgan islohotlar sharoitida davlat va xususiy tijorat banklarining balans tarkibi hamda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. So'nggi yillarda banklar kapitallashuvi, aktivlar sifati, kredit portfeli tarkibi va depozitlar bazasini diversifikatsiya qilish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish, "xalqchil IPO"lar, raqamli bank xizmatlari va bozor stavkalari asosida resurslar jalb etish siyosati raqobatni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushini